

## **MAHALLIY BUDJET DAROMADLARI HISOBI VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Baltayev Jasurbek Erkinovich**

*O'zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalliy budjet daromadlari hisobi va hisobotini takomillashtirish hamda uni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari, davlat byudjeti barqarorligi ta'minlashda mahalliy byudjet daromadlari hisobini tutgan o'rni, ularning afzalliklari va kamchiliklari, milliy va jahon amaliyotida biznesni ro'yhatga olish holati tahlili, mavjud to'siqlar va muammolar haqida atroficha to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Davlat byudjeti, g'aznachilik, mahalliy byudjeti, soliq, memorial order, fiskal siyosat, byudjet daromadlari, byudjet tizmi, byudjet jarayoni, byudjet nazaroti, byudjet holati.

Mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari samarali ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biridir. Byudjet ijrosining tezkorligi va sifatliligiga hamda byudjet mablag'larini samarali boshqarishda o'zining salbiy ta'sirini o'tkazayotganligi mavjud mexanizmni takomillashtirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlarni ko'rishni talab etadi. Shu sababli ham g'aznachilik tizimi va uning istiqbolli yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri hisoblanadi.


Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari, belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, bozorlardan tushadigan daromadlar hamda boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar mahalliy byudjetlarining daromadlari hisoblanadi. Tuman hokimliklari binolarida "Innovatsiya va texnologiya markazi" uchun maxsus xonalar ajratish hamda mahalliy budjet mablag'lari hisobidan zarur kompyuter texnikasi, aloqa vositalari, internet va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash. Sug'orish quduqlarini qazish, irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish uchun talab etiladigan mablag'larni (respublka va mahalliy budjet hamda tashabbuskorlar o'z mablag'lari) aniq hisob-kitob qilgan holda, 2022-yilda yangi va foydalanishdan chiqqan 129 ming hektar yerlarni o'zlashtirish bo'yicha dastur ishlab chiqish hamda mablag' ajratish tizimini yo'lga qo'yish. Respublika va mahalliy budjet mablag'lari hamda tashabbuskorlarning o'z mablag'idan xarajatlari moliyalashtirish<sup>1</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, iqtisodiyotda davlat boshqaruvini markazlashtirishni cheklash hamda bu boradagi vazifalarning bir qismini

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-soni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini to'g'risida farmoni.

respublikadan viloyat, tuman darajasiga o‘tkazishga asosiy e’tibor qaratilmoqda, buning natijasida ko‘pgina vakolatlar mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlariga navbatma-navbat o‘tkazilib borilmoqda. O‘tgan davrda bu sohada ko‘p ishlar amalga oshirildi, biroq sohada kelgusida hal etilishi zarur bo‘lgan ko‘plab masalalar mavjud. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Shuningdek, 2021 yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o‘sishini, byudjet defitsiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta’minlashimiz zarur. Kelgusi 2 yilda esa byudjet defitsitini 2 foizdan oshirmslik bo‘yicha Hukumat zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim. Hukumat bir oy muddatda 2021 yil uchun “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini ishlab chiqib, tasdiqlasin. Ushbu dasturlarni respublika va mahalliy byudjetlar tomonidan teng ulushlarda moliyalashtirishni nazarda tutsin.”<sup>2</sup> degan fikrlari so‘zimizni tasdiqlaydi.

Davlat byudjeti tuzilmasi tarkibidagi mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bog’liq masalalar tadqiq etilayotgan paytda, birinchi navbatda, mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritish, bu boradagi umumiyoq pozitsiyani shakllantirish talab etiladi. Shu munosabat bilan mahalliy byudjetlarning mazmun-mohiyati hamon iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta’kidlab o’tmoq lozim. Buni quyida keltirilganlar to’liq tasdiqlaydi:



### **1-rasm. Mahalliy byudjetlarning tuzilishi tarkibi<sup>3</sup>**

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi “2021-yilda Oliy Majlisga murojaatnomasidan

<sup>3</sup> Malikov T. S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda. O’quv qo’llanma. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2010. – 660 bet, 399-bet.

Mahalliy byudjetlar viloyat, tuman va shahar byudjetlarini o’zida ifoda etib, ushbu byudjetlar mablag’lari mahalliy davlat hokimiyati idoralari tomonidan mamlakat hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahalliy ahamiyatga doir turli v

a  
z

i Mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarining davlat byudjeti daromad va karajatlaridagi ulushini hamda uning o’zgarishini tahlil qilish, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining o’zaro nisbatini tadqiq etish, shu asosida ularning moliyaviy holatiga baho berish mahalliy byudjetlarning mustaqilligini ta’minalash va oshirishga yo’naltirilgan muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. 2020-2023-yillarda davlat byudjeti daromad va xarajatlarining o’sish sur’atlari mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlarining o’sish sur’atlaridan yuqori bo’lgan. Bunday holat mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Tegishli yillarda mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ulushi o’rtacha 21,8 foizni, mahalliy byudjetlar xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi ulushi o’rtacha 30,6 foizni tashkil etgan. Mahalliy byudjet xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlarining qariyb uchdan bir qismini tashkil etishi davlatning asosiy ijtimoiy vazifalarining mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtirilayotganida namoyon bo’ladi (1-jadval).

i 2020-2023-yillar davomida mahalliy byudjetlar daromadlari 2,2 barobarga, xarajatlari esa 1,7 barobarga ko’paygan. Bunday holat, bir tomonidan, so’nggi yillarda mahalliy byudjetlar ixtiyoriga qo’shimcha daromadlarning qoldirilishi bilan izohlansa, jukkinchi tomonidan, mahalliy byudjet daromadlarining xarajatlariga mutanosib emasligidan darak beradi. Tahlil qilingan yillarda mahalliy byudjetlarning xarajatlari kajnishihammadanligi osishishidan(ryudjorilash) (2020-2023-yillarda o’ttakki 208bljg mlrdim so’nggan iqtisadiy-iqtisodiy vazifalarni yug’et va qopida emilib qo’shish, hafizalish, byudjetlar uchapchiliklari va myolyasyqlari uchun quradigan yo’l qo’ymaydi.

### 1-jadval

#### Davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromad va xarajatlarining o’zgarishi (mlrd. so’mda)<sup>4</sup>

№	Ko’rsatkichlar	Yillar			
		2020	2021	2022*	2023*
1.	Davlat byudjeti daromadlari	132 938,0	164 799,4	202 043,0	232 607
2.	Mahalliy byudjetlar daromadlari	27 702,9	35 173,0	43 033,2	54 946,0
3.	Davlat byudjeti xarajatlari	144 142,7	188 257,1	236 579,0	257 734
4.	Mahalliy byudjetlar xarajatlari	47 190,8	65 534,4	57 148,7	79 226,9

\* pragnoz ko’rsatkichlari

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarning ommaviy dam olishiga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-

<sup>4</sup> <https://openbudget.uz> saytidagi tegishli yillar uchun “Fuqarolar uchun byudjet” nashrlari asosida magistrant tomonidan tayyorlangan

mulkni ijara beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavrakalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlarga o‘sib boruvchi koeffitsientlarni joriy etishga vakolatli hisoblanadi.

Byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida byudjet daromadlarning taqsimoti natijasida 2020-2023-yillarda hududlar mahalliy byudjeti daromadlari miqdori va ularni o‘zgarish tendensiyalari quyidagi ko‘rinishga ega (2-jadval).

**2-jadval**  
**2020-2023-yillarda mahalliy byudjetlar daromadlari miqdori<sup>5</sup>**  
**(mlrd. so‘mda)**

<b>Nº</b>	<b>Hududlar</b>	<b>Yillar</b>			
		<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022*</b>	<b>2023*</b>
1.	Andijon viloyati	2105,9	2 418,6	3 059,4	3 802,7
2.	Buxoro viloyati	1782,9	2 374,1	2 904,0	3 817,2
3.	Jizzax viloyati	1058,0	1 460,4	1 727,2	2 184,9
4.	Qashqadaryo viloyati	2468,8	2 722,1	3 483,0	4 561,2
5.	Navoiy viloyati	1540,9	1 947,8	2 186,3	2 993,6
6.	Namangan viloyati	1763,0	2 297,1	2 903,2	3 713,4
7.	Samarqand viloyati	2385,6	3 154,8	3 955,8	4 958,8
8.	Surxondaryo viloyati	1605,7	1 993,3	2 466,9	3 042,3
9.	Sirdaryo viloyati	716,5	881,7	1 104,5	1 406,1
10.	Toshkent viloyati	2395,5	3 734,1	4 378,9	5 866,2
11.	Farg‘ona viloyati	2677,3	3 665,1	4 242,5	5 437,8
12.	Xorazm viloyati	1302,7	1 743,1	2 220,6	2 719,2
13.	Toshkent shahri	3156,3	4 911,4	6 044,7	7 739,3
14.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2743,9	1 869,3	2 356,2	2 703,3
<b>Jami</b>		<b>27 702,9</b>	<b>35 173,0</b>	<b>43 033,2</b>	<b>54 946,00</b>

\* pragnoz ko‘rsatkichlari

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda mahalliy byudjetlarga moliyaviy erkinlik va mustaqillik berilishi natijasida hududlar mahalliy byudjetlari daromadlari miqdori o‘sish tendensiyasiga ega. Jumladan, 2020-yilga nisbatan mahalliy byudjetlarning jami daromadi 2 barobarga ortgan.

Jami mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida Toshkent shahri (o‘rtacha 5462,9 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (o‘rtacha 4093,7 mlrd. so‘m), Farg‘ona viloyati (o‘rtacha 4093,7 mlrd. so‘m) mahalliy byudjetlarining daromadlari miqdor jihatdan ustunlikka ega. 2020-2023-yillarda mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida hududlar byudjeti daromadlarining salmog‘i esa quyidagicha (3-jadval).

<sup>5</sup> <https://openbudget.uz> saytidagi tegishli yillar uchun “Fuqarolar uchun byudjet” nashrlari asosida magistrant tomonidan tayyorlangan

## 3-jadval

**2020-2023-yillarda mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida hududlar  
byudjeti daromadlarining salmog‘i (foiz hisobida)<sup>6</sup>**

№	Hududlar	Yillar			
		2020	2021	2022	2023
1.	Andijon viloyati	7,6	6,9	7,1	6,9
2.	Buxoro viloyati	6,4	6,7	6,7	6,9
3.	Jizzax viloyati	3,8	4,2	4,0	4,0
4.	Qashqadaryo viloyati	8,9	7,7	8,1	8,3
5.	Navoiy viloyati	5,6	5,5	5,1	5,4
6.	Namangan viloyati	6,4	6,5	6,7	6,8
7.	Samarqand viloyati	8,6	9,0	9,2	9,0
8.	Surxondaryo viloyati	5,8	5,7	5,7	5,5
9.	Sirdaryo viloyati	2,6	2,5	2,6	2,6
10.	Toshkent viloyati	8,6	10,6	10,2	10,7
11.	Farg‘ona viloyati	9,7	10,4	9,9	9,9
12.	Xorazm viloyati	4,7	5,0	5,2	4,9
13.	Toshkent shahri	11,4	14,0	14,0	14,1
14.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	9,9	5,3	5,5	4,9
<b>Jami</b>		<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

2020-2023-yillarda hududlar mahalliy byudjetlarining jami daromadlari tarkibida Toshkent shahri (o‘rtacha 13,4 foiz), Toshkent (o‘rtacha 10 foiz), Farg‘ona (o‘rtacha 9,9 foiz), Qashqadaryo (o‘rtacha 8,3 foiz) viloyatlari byudjetlari daromadlari boshqa hududlar daromadlariga nisbatan yuqori bo‘lgan. Bunday holatni mazkur hududlarning iqtisodiy salohiyati yuqoriligi va sanoatining nisbatan rivojlanganligi, tadbirdorlik faoliyatining taraqqiyoti hamda soliq to‘lovchilar sonining ko‘pligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, hududlar byudjeti daromadlarining jami mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibidagi ulushining sezilarli darajada farqlanishi daromad manbalarining miqdoriga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi hamda Mahalliy xokimiylarning faoliyat ko‘rsatishlarida moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar tizimi Mahalliy talab-extiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarining bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Mahalliy xokimiyat organlariga Mahalliy byudjet daromadlarining ko‘payishi va resurslarning tejmakorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi.

Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishni moliyaviy manbalar bilan ta‘minlanishi amalga oshiriladi. Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimining asosiy qismi sifatida o‘zida ko‘pgina mustaqil byudjetlarni mujassamlashtiradi va davlat byudjetida qariyib 60%ni tashkil o‘iladi.

<sup>6</sup> Yuqoridagi 2.3-jadval asosida magistrant tomonidan tayyorlangan

Mahalliy xokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib tushishini ko'paytirish hamda resurslardan optimal foydalanishdan manfaatdordirlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Malikov T. Moliya. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2018. – 268 b.
2. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. – T: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 800 b.
3. Nurmuxamedova B. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 575 b.
4. Поляк Г. Бюджетная система Российской Федерации. – М.: ЮНИТИ, 2001. – 540 с.
5. Поляк Г. Финансы. – М.: Юнити-Дана. 2008. – 703 с.
6. Поляк Г. Государственные и муниципальные финансы: Уч. пос. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. – 375 с.
7. Поляк Г. Бюджетная система России. – М.: Юнити-Дана, 2010. – 704 с.
8. Родионова В. Финансы. – Москва: Финансы и статистика, 1995. – 478 с.
9. Романовский М., Врублевская О., Сабанти Б. Финансы: Учебник для вузов. – М.: Юрайт, 2009. – 498 с.
10. Toshmuradova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. – T.: Yangi asr avlod, 2002. – 128 b.
11. Jumaniyozov, I. (2020). ISSUES OF ENSURING THE TRANSPARENCY OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(5), 1.
12. Jumaniyazov, I. (2020). FOREIGN EXPERIENCE IN THE ACTIVITIES OF SOVEREIGN FUNDS. International Finance and Accounting, 2020(2), 1.
13. Jumaniyazov, I. T. (2021). Transparency Is A Key Indicator Of The Activity Of Sovereign Wealth Funds. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 30-37.
14. Jumaniyazov, I., & Xaydarov, A. (2023). The importance of social insurance in social protection. Science and Education, 4(1), 1033–1043. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4941>
15. Inomjon, J. (2023). GENDER BYUDJETLASHTIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING O'RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1187-1191.
16. Бахронов, Ж., & Жуманиязов, И. (2023). Партиципатор бюджетлаштириш ва уни Ўзбекистонда қўллаш долзарбилиги. Science and Education, 4(2), 1486–1493. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5234>
17. Davlatboyeva, M. S. qizi, & Jumaniyazov, I. T. (2023). Yashil byudjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari. Science and

- Education, 4(2), 1509–1516. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5237>
18. Jumaniyazov, I. T. (2019). Evaluation criteria for the efficiency of sovereign funds. Global science and innovations 2019: Central Asia. In International scientific conference.–Nur-Sultan (Kazakhstan) (Vol. 340, pp. 226-229).
19. Jumaniyazov, I. T., & Abdurahmonov, Q. (2023). TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING BANKLAR FAOLIYATIDAGI ISHTIROKI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 139-146.
20. Asror, A., & Inomjon, J. (2023). O'ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI ISH HAQI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 128-138.
21. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. Science and Education, 4 (5), 1518-1523.
22. Turayevich, J. I., & Akmal o'g'li, S. M. (2023). INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASINING O'RNI. PEDAGOGS jurnali, 35(4), 147-157.
23. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. Nonlinear Engineering, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
24. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China's Sovereign Wealth Funds. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 2(1), 1–8.
25. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
26. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(11), 71–76.
27. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
28. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(2), 104–114.

29. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). SOME ISSUES OF THE DEVELOPMENT OF BANKING INNOVATIONS IN THE COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN. *Academia Repository*, 5(03), 31–37. Retrieved from <https://academiarepo.org/index.php/1/article/view/662>
30. Shavkat Bayramovich Babaev, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, & Inomjon To‘raevich Jumaniyazov. (2024). CONCEPTUAL REFLECTION OF THE CHANGING ROLE OF THE STATE EXPORT POLICY IN THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *European Scholar Journal*, 5(3), 5-8.
31. Jumaniyazov Inomjon To‘raevich, Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. *Global Scientific Review*, 26, 46–54.
32. Jumaniyazov Inomjon To‘rayevich. (2024). ESG IN SOVEREIGN WEALTH FUND INVESTMENTS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 117–124.
33. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023
34. To‘raevich, J. I., Nazarbaevich, A. A., Qilichbayevich, S. M., & Babaev, S. B. (2024). Importance of social principles of sovereign wealth funds. *Global Scientific Review*, 26, 46-54.
35. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund’s expenditure on GDP growth. *Science, research, development № 16. Monografiya pokonferencyjna*.
36. Oppog‘ov, J. A., & Jumaniyazov, I. T. (2024). Moliya tizimida g‘aznachilik faoliyatini rivojlanish istiqbollari. *Science and Education*, 5(5), 504–512.
37. Inomjon To‘raevich Jumaniyazov, Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Shavkat Bayramovich Babaev. (2024). METHODOLOGICAL BASIS FOR FORECASTING THE TAX POTENTIAL OF THE RUSSIAN FEDERATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 27, 100–107.
38. Abdullaev, A. N., Jumaniyazov, I. T. R., Sabirov, M. Q., & Babaev, S. B. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF PERSONAL INCOME TAX FORECASTING. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 28, 233-243.
39. ESG PRINCIPLES IN INVESTMENT PROJECTS FINANCED BY SOVEREIGN INVESTMENT FUNDS. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1096-1102.
40. THE SOCIAL IMPORTANCE OF SOVEREIGN WEALTH FUNDS. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1028-1034.
41. TARGETED PLANNING OF BUDGET EXPENDITURES AND IMPACT ON SOCIAL POLICY. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1442-1444.
42. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINING AHAMIYATI. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1418-1422.

43. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT XARIDINI TASHKIL ETISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. (2024). Ustozlar Uchun, 1(4), 1428-1432.
44. Xamro o‘g‘li, Y. R., & Turayevich, J. I. (2024). ISHSIZLIK DARAJASI, UNING TURLARI VA UNI BARQARORLASHTIRISHNING YOLLARI. Ustozlar uchun, 1(4), 767-771.
45. <https://www.lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
46. <https://www.mf.uz> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi rasmiy veb sayti
47. [www.openbudget.uz](http://www.openbudget.uz). - O‘zbekiston Respublikasi «Ochiq byudjet» portalı
48. <https://www.stat.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb sayti